



**SHAXSNING QADR-QIMMATIGA QARSHI JINOYATLARNING
TARKIBI VA ULARNI KVALLIFIKATSIYA QILISH MASALALARI**

Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

e-mail: aynurasarsenbaeva.101@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxsning qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar tavsifi, tuhmat va haqorat jinoyatlarining ahamiyati va bu jinoyatlarga qo'llaniladigan jazolar, obyektiv va subyektiv belgilari yoritib berilgan. Shuningdek bu jinoyatlarning jamiyatda ko'payib borishi sabablari va ularning oldini olish choralari ham aytib o'tilgan. Shuningdek maqolada tuhmat va haqorat jinoyatlarining sanksiyalari va jinoyat tarkibidagi farqlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi bilan xorijiy davlatlar huquqiy hujjatlari solishtirilgan.*

***Kalit so'zlar:** inson sha'ni, sanksiya, huquq, tuhmat, haqorat qilish, ma'muriy javobgarchilik, uydirma, jinoyat tarkibi*

**СОСТАВ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ЧЕСТИ ЛИЧНОСТИ И
ВОПРОСЫ ИХ КВАЛИФИКАЦИИ**

Сарсенбаева Айнура Тенелбай кизи

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

студент 3-го курса юридического факультета

E-mail: aynurasarsenbaeva.101@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье описываются преступления против достоинства личности, значение клеветы и оскорбления, а также наказания, применяемые к этим преступлениям, их объективные и субъективные признаки. Также были названы причины роста этих преступлений в обществе и меры по их предотвращению. Также в статье сравниваются правовые акты*



зарубежных стран с Уголовным кодексом Республики Узбекистан о санкциях за клевету и оскорбление и различиях в составе преступления.

Ключевые слова: честь человека, санкция, право, клевета, оскорбление, административная ответственность, вымысел, состав преступления

THE COMPOSITION OF CRIMES AGAINST THE DIGNITY OF THE PERSON AND ISSUES OF THEIR QUALIFICATION

Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi

3rd year student of the Faculty of Law

Karakalpak State University named after Berdakh.

e-mail: aynurasarsenbaeva.101@gmail.com

Annotation: This article highlights the characteristics of crimes against human dignity, the significance of slander and insult, and the punishments applied to these crimes, as well as their objective and subjective characteristics. The reasons for the increase in these crimes in society and measures to prevent them are also indicated. The article also compares the sanctions for defamation and insult and the differences in the elements of the crime with the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and the legal documents of foreign countries.

Key words: human dignity, sanctions, rights, defamation, insult, administrative liability, fabrication, corpus delicti

Inson tugʻillar ekan u oʻsha zahotiy oq qonun bilan ximoya qilinadigan bir necha huquqlarga jumladan, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarga ega boʻladi. Bu huquqlarning va inson qadr-qimmatini qoʻriqlash har bir demokratik davlatning bosh vazifasi sifatida qaraladi. Shaxsning qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi har qanday harakatlar ijtimoiy adolatga putur yetkazib qoʻymasdan, jamiyatdagi tartibsizliklarga olib keladi. Hozirgi axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida insonning qadr-qimmatini oyoq osti qilish shakllari



ko'paymoqda va bu kabi jinoyatlarning oldini olish yana da murakkablashmoqda desak xato qilmagan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shunday deyilgan "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas" [1]. Inson qadr-qimmatining himoya qilinishi va uning dolzarb masala ekanligini Bosh Qomusimizda akst ettirilganidan ham anglab yetishimiz mumkin. Sababi shundaki Konstitutsiya davlatimizda eng kuchli normativ-hujjat bo'lib, u boshqa hujjatlar va qonunlarning asosi sifatida qaraladi, ya'ni bu muhim inson qadr-qimmatining yuqori qadriyat ekanligidan dalolat beradi.

Inson qadr-qimmatini kamsitish jinoyati bu bitta davlat o'rtasida emas balkim davlatlararo muammo sifatida e'tirof etiladi. Shu sababi xalqaro tashkilotlar hisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa inson huquqlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan tashkilotlar inson qadr-qimmatini himoya qilish va jinoyatlarni oldini olish va kamaytirish maqsadida xalqaro deklaratsiya va shartnomalarda bu huquqni qayta-qayta takrorlaydilar. Masalan 1948-yili 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" da hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'ilishi haqida yozilgan[2].

Inson sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlaridan biri bu tuhmat hisoblanib, u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 139-moddasida ko'rsatilgan. Tuhmat biror-bir shaxsni obro'sizlantirish maqsadida yolg'on va uydirma gaplar tarqatishda namoyon bo'luvchi va shaxslarning qadr-qimmatiga muayyan miqdorda zarar yetishiga olib keluvchi harakatdir. Tuhmat qilish jinoyatining o'ziga xos belgilaridan biri bu unda ma'muriy preyuditsiyaning borligidir. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ijtimoiy xavfli harakat jinoyat sifatida e'tirof etilishi uchun avval ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksining 40-moddasiga binoan:



Tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi[3].

Tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish ma'muriy javobgarlik qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida takroran sodir etilsa jinoyiy javogralikka tortiladi va Jinoyat Kodeksiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi[4].

Uydirma – aybdor tomonidan yig'ilgan amalda mavjud bo'lmagan yoki aybdor tomonidan soxtalashtirilgan, noto'g'ri sharxlangan ma'lumotlarni tushunish kerak. Bu jinoyat obyektiv tarafdin bila turib boshqa shaxsni sharmanda qilishda namoyon bo'ladi va bu jinoyat hisoblanishi uchun aybdor tarqatilayotgan ma'lumotlar yolg'onligini bilishi, tarqatilayotgan ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va sharmanda qiluvchi sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi bo'lishi lozim[5,160]. Ya'ni jinoyat tarkibida mana shu belgilarining bo'lishi zarur, aks holda bu jinoyat hisoblanmaydi.

Ushbu moddaning ikkinchi bo'limiga ko'ra agar tuhmat nashr qilish, yoki boshqacha usulda ko'paytirilsa, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internet jahon tarmoqlarida joylashtirish orqali sodir etilsa bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanishi ko'rsatilgan.

Inson sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi dolzarb jinoyatlarning yana biri sifatida haqorat qilish qaraladi. Bu jamoatlik xavfli harakat ham tuhmat qilish jinoyatiga o'xshagan holda ma'muriy javobgarchilik preyuditsiyasini talab qiladi. Haqorat qilish deganda shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini taxqirlash, ya'ni shaxsni qoralashga qaratilgan bo'ladi. Bu jinoyat Jinoyat Kodeksining 140-moddasi bo'yicha



bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishga sabab bo‘ladi. Haqorat qilish jinoyatining tuhmat qilish jinoyatiga o‘xshash tarafi bu jinoyatning agar nashr qilish yoki boshqacha usulda ko‘paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirish orqali sodir etilsa, sanksiyalarning og‘irlashishidir.

Tuhmat va haqorat qilish jinoyatlari Germaniya Jinoyat kodeksi (Strafgesetzbuch) bilan tartibga solinadigan bo‘lib, ular ikkalasi xuddi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida berilgani kabi alohida jinoyat sifatida qaraladi. Germaniya Jinoyat kodeksiga ko‘ra haqorat qilish deyilganda shaxsni so‘z, yozuv, imo-ishora yoki boshqa shaklda kamsitish yoki haqorat omma oldida yoki shaxsiy muloqotda sodir etilishi va bu jinoyiy harakatga qarata jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilishi aytilgan. Shu kabi tuhmat qilish ham boshqa shaxs haqida uning obro‘sigacha putur yetkazuvchi fakti aytish yoki tarqatish orqali sodir etilishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi bilan o‘xshash hisoblanadi[6].

Xulosa qilib aytganda, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar jamiyatda tartibsizliklar yuzaga kelishi va inson huquqlarining oyoq osti qilinishiga olib kelishi sababli og‘ir jinoyatlar sifatida qaralib, ularning sodir etilishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilishi shart. Sababi jamiyatimizda inson huquqlari va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini yuksak darajada ardoqlanib, ularni himoya qilish bo‘yicha barcha chora tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bu jinoyatlarning oldini olishda asosan fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish va profilaktik choralarini yana ham kuchaytirish orqali kamaytirishimiz mumkin deb hisoblayman.

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>



2. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" Birlashgan Millatlar Tashkilotlari tomonidan 10.12.1948-yili qabul qilingan <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksi 22.09.1994 <https://lex.uz/docs/-97664#-197982>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 22.09.1994 <https://lex.uz/docs/-111453#-262239>
5. "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga sharxlar" Maxsus qism M.Rustamboyev -Toshkent "Adolat", 2016 -960b
6. Germaniya Jinoyat Kodeksi https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html